

**ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA YOSHLAR MA'NAVIY
TARBIYASINING FALSAFIY MUAMMOLARI**

Bazarov Yoqubjon Xasanboy o'g'li

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tyutori

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida yoshlar ma'naviy tarbiyasining ontologik, gnoseologik, aksiologik, antropologik va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqot nazariy-metodologik tahlil usuliga asoslangan bo'lib, Kastells, Mak Lugan, Postman, Zuboff va Habermas kabi mutafakkirlarning konseptual yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi. Raqamli muhitda axborotning haddan tashqari ko'pligi, algoritmik saralash, manipulyativ kommunikatsiya, dezinformatsiya, e'tibor iqtisodiyoti va virtual identifikatsiya kabi fenomenlar yoshlarning ma'naviy dunyosiga yangi mazmuniy bosimlarni yuzaga keltirayotgani asoslanadi. Tadqiqot natijasida XXI asr ma'naviy tarbiyasining asosiy paradigmasi "axborotdan himoyalaniish" emas, balki "axborot sharoitida insoniylikni saqlash" tamoyili bilan ifodalanishi lozimligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: axborot makoni, raqamli transformatsiya, yoshlar, ma'naviy tarbiya, falsafiy antropologiya, aksiologiya, gnoseologiya, raqamli ontologiya, media savodxonligi, tanqidiy tafakkur, raqamli fuqarolik.

Аннотация. В данной статье комплексно исследуются онтологические, гносеологические, аксиологические, антропологические и социально-философские аспекты духовного воспитания молодежи в условиях глобализации, цифровой трансформации и стремительного развития информационно-коммуникационных технологий. Исследование основано на теоретико-

методологическом анализе с сравнительным рассмотрением концепций Кастельса, Маклюэна, Постмана, Зубофф и Хабермаса. Обосновывается, что основной парадигмой духовного воспитания XXI века должен стать принцип «сохранения человечности в условиях информации», а не «защиты от информации».

Ключевые слова: информационное пространство, цифровая трансформация, молодежь, духовное воспитание, философская антропология, аксиология, гносеология, цифровая онтология, медиаграмотность, критическое мышление, цифровое гражданство.

Abstract. This article comprehensively examines the ontological, epistemological, axiological, anthropological, and socio-philosophical aspects of the spiritual education of youth in the context of globalization, digital transformation, and the rapid development of information and communication technologies. The study is based on theoretical-methodological analysis with a comparative examination of the conceptual approaches of Castells, McLuhan, Postman, Zuboff, and Habermas. It is substantiated that the fundamental paradigm of twenty-first-century spiritual education should be the principle of “preserving humanity within the information environment” rather than “protection from information.”

Keywords: information space, digital transformation, youth, spiritual education, philosophical anthropology, axiology, epistemology, digital ontology, media literacy, critical thinking, digital citizenship.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida insoniyat taraqqiyotining asosiy determinantlaridan biri sifatida namoyon bo‘layotgan raqamli texnologiyalar ijtimoiy borliqning makon va vaqt parametrlarini tubdan o‘zgartirib, insonning axborot bilan munosabatini tarixiy jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur transformatsiya natijasida axborot endilikda faqat bilimni uzatuvchi kommunikativ resurs emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi,

individual va kollektiv identifikatsiyani konstruksiya qiluvchi hamda ijtimoiy xulq-atvorni muayyan darajada boshqaruvchi strategik resursga aylanmoqda (Castells, 2010:xviii). Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlar ma'naviy tarbiyasi masalasi an'anaviy pedagogik paradigmaning tor doirasida emas, balki raqamli jamiyatning ontologik va aksiologik transformatsiyalari kontekstida tadqiq etilishi zarur.

Yosh avlodning ma'naviy dunyosi ilgari asosan oila, mahalla, ta'lim muassasasi, milliy madaniyat va bevosita ijtimoiy muhit orqali shakllangan bo'lsa, bugungi kunda ushbu institutlar bilan bir qatorda global raqamli platformalar ham shaxsning qadriyatlar tizimiga ta'sir etuvchi muhim ijtimoiylashtiruvchi subyektga aylanmoqda (Castells, 2010:3). Bunday sharoitda yoshlarning ma'naviy shakllanishi masalasini faqat axloqiy me'yorlarni singdirish yoki milliy qadriyatlarni targ'ib qilish bilan cheklash metodologik jihatdan yetarli emas, chunki raqamli muhit shaxsning axborotni qabul qilish tezligi, diqqatni taqsimlash usuli, ijtimoiy aloqalarni qurish mexanizmi va hatto voqelikni anglash strukturasini ham o'zgartirmoqda (McLuhan, 1964:9).

Ushbu tadqiqotning maqsadi zamonaviy axborot makonida yoshlar ma'naviy tarbiyasining falsafiy muammolarini ontologik, gnoseologik, aksiologik va antropologik jihatdan tahlil qilish hamda raqamli jamiyat sharoitiga mos ma'naviy tarbiya paradigmasining nazariy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati raqamli transformatsiya sharoitida ma'naviy tarbiyani texnologik determinizm va texnofobik inkordan farqli o'laroq, insonparvarlik tamoyillari asosida qayta konseptualashtirishga qaratilganligida namoyon bo'ladi (Postman, 1992:18).

Nazariy asoslar va tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini axborot jamiyati, media falsafasi va raqamli ontologiya sohasidagi bir qator fundamental konsepsiyalar tashkil etadi. Manuel Kastellsning tarmoq jamiyati (network

society) konsepsiyasi ushbu transformatsiyaning ijtimoiy mohiyatini anglash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki uning yondashuvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning tarmoq shaklida qayta tashkil topishiga olib keluvchi strukturaviy omil sifatida talqin qilinadi (Castells, 2010:500). Kastells internetning inson hayotidagi o‘rnini nihoyatda ixcham ifodalab, internet zamonaviy hayotning to‘qimasiga aylanganini ta’kidlaydi (Castells, 2001:1).

Marshall Mak Lugan tomonidan ilgari surilgan “vositaning o‘zi xabardir” (“the medium is the message”) degan mashhur formula kommunikatsiya jarayonini anglash uchun alohida metodologik ahamiyatga ega (McLuhan, 1964:7). Mak Lugan konsepsiyasiga ko‘ra, kommunikatsiya vositasi faqat axborotni yetkazib beruvchi neytral kanal emas, balki inson idroki va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi muhitdir (McLuhan, 1964:9). Neil Postmanning texnologiya tanqidi, xususan uning “texnopoliya” (technopoly) va “axborot ortiqchaligi” (information glut) konsepsiyalari axborot jamiyatining gnoseologik muammolarini tahlil qilishda tayanch nazariy vosita bo‘lib xizmat qiladi (Postman, 1992:71).

Shoshana Zuboffning “kuzatuv kapitalizmi” (surveillance capitalism) konsepsiyasi algoritmik vositachilik va shaxs avtonomiyasi muammosining iqtisodiy-siyosiy mohiyatini ochib berish uchun qo‘llaniladi (Zuboff, 2019:8), Yurgen Habermasning kommunikativ ratsionallik va ommaviy makon (public sphere) nazariyasi esa raqamli muloqotning axloqiy-epistemik sifatini baholash uchun metodologik asos yaratadi (Habermas, 1989:27; Habermas, 1984:86). Tadqiqotda ushbu konseptual manbalarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish, falsafiy refleksiya va tizimli-strukturaviy tahlil usullari qo‘llanilgan. Empirik dalillar sifatida UNESCO va UNICEF tomonidan e’lon qilingan media va axborot savodxonligiga oid xalqaro hisobotlar tahlilga jalb etilgan (UNESCO, 2022:12; Stoilova et al., 2021:15).

Tahlil va natijalar

1. Axborot makonining ontologik o‘lchovi

Axborot makonining kengayishi, avvalo, inson mavjudligining an’anaviy chegaralarini qayta belgilayotgan yangi ontologik vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Raqamli muhitda real va virtual, moddiy va nomoddiy, individual va kollektiv, xususiy va ommaviy kabi kategoriyalar o‘rtasidagi chegaralar tobora murakkablashib, ularning o‘zaro aloqadorligi kuchaymoqda (Castells, 2010:407). Virtual makonning rivojlanishi insonning “qayerda mavjud bo‘lishi” haqidagi klassik savolni “qaysi kommunikativ tarmoqda va qanday raqamli identifikatsiya shaklida mavjud bo‘lishi” haqidagi yangi savol bilan to‘ldirmoqda.

Bunday sharoitda yosh shaxsning identikligi faqat biologik, oilaviy yoki milliy mansublik orqali emas, balki uning raqamli profili, virtual reputatsiyasi, kommunikativ tarmoqlardagi ishtiroki va algoritmik tizimlar tomonidan shakllantiriladigan axborot oqimi orqali ham namoyon bo‘lmoqda (McLuhan, 1964:20). Shaxsning raqamli identifikatsiyasi o‘z navbatida doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladigan, tahrirlanadigan va boshqa subyektlarning reaksiyasi bilan tasdiqlanadigan dinamik konstruksiyaga aylanmoqda. Mazkur holat falsafiy antropologiya uchun muhim metodologik xulosani yuzaga keltiradi: zamonaviy insonni faqat biologik yoki ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki raqamli-kommunikativ mavjudot sifatida ham tadqiq qilish zarur (Castells, 2001:5).

2. Axborot va bilim o‘rtasidagi gnoseologik tafovut

Raqamli jamiyatning eng murakkab falsafiy muammolaridan biri axborot hajmining keskin ortishi bilan bilimning mazmuniy chuqurligi o‘rtasida doimo ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud emasligidir. Axborotning ko‘pligi avtomatik ravishda insonning bilim darajasi, tafakkur chuqurligi yoki ma’naviy yetukligini ta’minlamaydi; aksincha, axborotning ortiqcha ko‘pligi subyektning e’tiborini parchalashi, epistemik ustuvorliklarni

buzishi va muhim bilan ikkinchi darajali hodisani farqlash qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin (Postman, 1992:69).

Neil Postmanning texnologiya va axborot haqidagi tanqidiy qarashlari aynan shu muammoni oldindan ko'ra olgan nazariy yondashuvlardan biridir. Postman texnologik taraqqiyotga ko'r-ko'rona ergashish xavfini tahlil qilib, texnologik o'zgarish qo'shiluvchi (additive) emas, balki ekologik (ecological) xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi (Postman, 1992:18). Bu fikr texnologiyaning jamiyatga oddiy qo'shimcha sifatida emas, balki ijtimoiy muhitning butun tuzilishini o'zgartiruvchi omil sifatida qaralishi kerakligini anglatadi. Postmanning "information glut", ya'ni axborotning haddan tashqari ko'payishi haqidagi konsepsiyasi ham zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar fenomenini tushuntirish uchun muhim nazariy vositadir (Postman, 1992:71).

Mazkur nazariy nuqtayi nazardan axborotning qadri uning miqdori bilan emas, balki uning semantik mazmuni, ishonchliligi, kontekstual yaxlitligi va inson faoliyatidagi funksional ahamiyati bilan belgilanadi. Shuning uchun yoshlar ma'naviy tarbiyasida axborot iste'molining miqdoriy ko'rsatkichlarini emas, balki uning epistemik va aksiologik sifatini baholash muhimdir. Bunda epistemik mas'uliyat tushunchasi alohida metodologik ahamiyat kasb etadi, chunki shaxs o'zlashtirayotgan ma'lumotning haqiqiyliги, manbasi va oqibatlari haqida mustaqil mulohaza yurita olishi lozim (Habermas, 1984:99).

3. Algoritmik vositachilik va inson avtonomiyasi

Raqamli axborot makonining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, inson ko'pincha axborotning bevosita manbasi bilan emas, balki uni saralab, tartiblab va ustuvorlashtirib beruvchi algoritmik tizim bilan yuzma-yuz keladi. Bu holat axborot iste'molining spontan jarayon emas, balki texnologik va iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liq algoritmik seleksiya jarayoni ekanligini ko'rsatadi (Zuboff, 2019:75). Natijada shaxsning dunyoqarashi faqat o'zining

ongli tanlovi orqali emas, balki ko‘pincha ko‘zga ko‘rinmaydigan texnologik vositachilik orqali ham konstruksiya qilinadi.

Shoshana Zuboff tomonidan ishlab chiqilgan kuzatuv kapitalizmi konsepsiyasi mazkur jarayonning iqtisodiy-siyosiy mohiyatini tushuntirish uchun muhim nazariy asos beradi. Zuboffning tahliliga ko‘ra, raqamli platformalarda foydalanuvchilarning xulq-atvori va ma’lumotlari iqtisodiy qiymatga aylantirilishi mumkin, bunda inson tajribasi raqamli tahlil va bashorat qilishning resursiga aylanadi (Zuboff, 2019:94). Bunday sharoitda shaxs avtonomiyasi masalasi faqat davlat yoki boshqa insonlarning bevosita aralashuvi bilan emas, balki algoritmik arxitekturaning yashirin ta’siri bilan ham bog‘liq bo‘ladi (Zuboff, 2019:138). Shu nuqtayi nazardan yoshlar ma’naviy tarbiyasining vazifasi faqat axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishdan iborat bo‘lmay, algoritmik muhitning ishlash tamoyillarini anglash kompetensiyasini ham shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

4. Dezinformatsiya va epistemik xavfsizlik muammosi

Zamonaviy axborot makonida yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga tahdid soluvchi muhim omillardan biri dezinformatsiya va noto‘g‘ri axborotning yuqori tezlikda tarqalishidir. Dezinformatsiyaning xavfi faqat yolg‘on xabarning mavjudligida emas, balki uning takroriy kommunikativ ta’sir orqali yolg‘on tasavvurni ijtimoiy haqiqat sifatida mustahkamlash imkoniyatidadir (Stoilova et al., 2021:22). Ayniqsa, hissiy jihatdan kuchli, vizual jihatdan jozibador va qisqa shaklda berilgan kontent tanqidiy tahlildan oldin emotsional reaksiyani yuzaga keltirishi mumkin, natijada shaxsning ratsional refleksiya qilish imkoniyati zaiflashadi.

UNICEF materiallarida bolalar va yoshlarning raqamli muhitda ishonchli manbalarni topish, noto‘g‘ri axborot va tarafkash kontentni aniqlash uchun tanqidiy tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligi alohida qayd etilgan (Stoilova et al., 2021:18). Mazkur tahlilda media savodxonligi bo‘yicha ta’lim olgan yoshlarning axborotning to‘g‘riligini baholash

imkoniyati yaxshilangani haqida empirik dalillar keltiriladi (Stoilova et al., 2021:31). Bu dalil ma'naviy tarbiyani faqat normativ nasihatlar orqali amalga oshirish yetarli emasligini, uning tarkibida empirik asoslangan media va axborot savodxonligi kompetensiyalari ham bo'lishi kerakligini ko'rsatadi (UNESCO, 2022:24).

Epistemik xavfsizlik tushunchasi shu nuqtada yoshlarning yolg'on, manipulyativ va kontekstdan uzilgan axborot ta'siriga nisbatan intellektual barqarorligini anglatadi. Bunday barqarorlik shaxsning har qanday axborotni rad etish qobiliyati emas, balki axborotni tekshirish, manbalarni solishtirish, dalillarni baholash va muqobil izohlarni ko'rib chiqish qobiliyatidan iboratdir. Shuning uchun tanqidiy tafakkur negativ skeptitsizm emas, balki asoslangan xulosaga kelishning metodologik madaniyatidir (Habermas, 1984:102). Demak, yoshlar ma'naviy tarbiyasida tanqidiy tafakkurni shakllantirish epistemik mustaqillikni ta'minlashning fundamental sharti hisoblanadi.

5. Raqamli makon va qadriyatlar transformatsiyasi

Axborot makonining globallashuvi yoshlarni bir vaqtning o'zida turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar, axloqiy tizimlar va hayot tarzlari bilan muloqotga kiritmoqda. Mazkur jarayonning ijobiy jihati shundan iboratki, yosh shaxs boshqa xalqlarning tajribasi bilan tanishib, o'z dunyoqarashini kengaytirishi va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishi mumkin (Castells, 2010:404). Biroq madaniy almashinuvning o'zi avtomatik tarzda ma'naviy yetuklikni yuzaga keltirmaydi, chunki qadriyatlar o'rtasidagi tanlov refleksiv va ongli xarakterga ega bo'lmasa, globallashuv yuzaki taqlidga aylanishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatni "qarama-qarshilik" modeli asosida emas, balki "dialektik uyg'unlik" modeli asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Milliy qadriyatlar insonning tarixiy xotirasi, til, madaniy tajriba, urf-odat va ijtimoiy birdamlik mexanizmlarini ifodalasa, umuminsoniy qadriyatlar inson qadr-qimmati, adolat, erkinlik,

tinchlik, bag‘rikenglik va mas‘uliyat kabi umumiy axloqiy tamoyillarni ifodalaydi (Habermas, 1989:31). Mazkur ikki darajani bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish ham metodologik, ham aksiologik jihatdan samarasizdir.

Demak, yoshlar ma‘naviy tarbiyasining strategik maqsadi milliylikni global ta’sirlardan sun‘iy ravishda ajratish emas, balki milliy o‘zlikni ochiq, tanqidiy va dialogik identifikatsiya shakliga aylantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Bunday identifikatsiya yoshga o‘z madaniyatini boshqa madaniyatlar bilan qiyoslash, uning kuchli va zaif jihatlarini anglash hamda boshqa madaniyatlarni kamsitmasdan o‘zining ma‘naviy ildizlarini qadrlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan globallashtirishni milliy o‘zlikning yo‘qolishi bilan tenglashtirish biryoqlama determinizm bo‘lib, raqamli makondagi identifikatsiya jarayonlarining murakkab dialektikasini yetarlicha aks ettirmaydi (Castells, 2010:3).

6. Sun‘iy intellekt va ma‘naviy tarbiyaning yangi chegaralari

Generativ sun‘iy intellektning keng tarqalishi axborot makonidagi epistemik muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. Endilikda inson nafaqat boshqa insonlar tomonidan yaratilgan axborot bilan, balki algoritmlar tomonidan generatsiya qilingan matn, tasvir, audio va video bilan ham muntazam ravishda to‘qnash kelmoqda. Bu holat “mualliflik”, “haqiqat”, “ishonchlilik” va “autentiklik” kategoriyalarining mazmunini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda (UNESCO, 2022:38). Agar raqamli kontentning tashqi ko‘rinishi uning haqiqiylikni kafolatlamasa, yoshlarning vizual va kommunikativ intuitsiyasini an‘anaviy shaklda rivojlantirish yetarli bo‘lmay qoladi.

UNESCO yoshlar uchun media va axborot savodxonligi dasturlarida sun‘iy intellekt bilan ishlashda tanqidiy va axloqiy yondashuvni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi (UNESCO, 2022:41). Shuning uchun sun‘iy intellekt savodxonligi raqamli savodxonlikning alohida texnik yo‘nalishi emas, balki epistemik va axloqiy savodxonlik bilan integratsiyalashgan kompetensiya

sifatida shakllantirilishi kerak. Yoshlar sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida hosil bo'lgan natijani tayyor haqiqat sifatida emas, balki tekshirilishi zarur bo'lgan ehtimoliy axborot sifatida qabul qilishi lozim. Shaxsning texnologiyadan foydalanishi bilan texnologiyaga epistemik jihatdan qaram bo'lib qolishi o'rtasidagi farq aynan shu nuqtada namoyon bo'ladi (Postman, 1992:107).

Xulosa

Zamonaviy axborot makoni yoshlar ma'naviy tarbiyasining tashqi sharoiti emas, balki uning mazmuni, shakli va mexanizmlarini qayta belgilayotgan fundamental ijtimoiy-madaniy muhitga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yoshlarning bilim olish, muloqot qilish, ijodkorlik va fuqarolik ishtiroki uchun mislsiz imkoniyatlarni yaratish bilan birga, axborotning ortiqchaligi, manipulyatsiya, dezinformatsiya, algoritmik vositachilik va qadriyatlar fragmentatsiyasi kabi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda (Postman, 1992:71; Zuboff, 2019:94).

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, yoshlar ma'naviy tarbiyasining zamonaviy paradigmasi texnologik determinizmga ham, texnofobik inkorga ham asoslanmasligi kerak. Mazkur paradigma texnologiyani insoniy maqsadlarga bo'ysundirish, raqamli muhitda shaxs avtonomiyasini himoya qilish va axborotdan foydalanishning axloqiy mezonlarini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Kastellsning tarmoq jamiyati haqidagi qarashlari raqamli texnologiyalar ijtimoiy strukturalarni qayta tashkil etayotganini ko'rsatib bersa (Castells, 2010:500), Mak Lugan konsepsiyasi kommunikatsiya vositasining o'zi inson idroki va madaniyatiga ta'sir qiluvchi omil ekanligini anglash imkonini beradi (McLuhan, 1964:9).

Postmanning texnologik muhit va axborot ortiqchaligi haqidagi tanqidi ko'p axborot har doim ham ko'p bilim yoki ko'p ma'naviyat degani emasligini nazariy jihatdan asoslaydi (Postman, 1992:69). Zuboffning kuzatuv kapitalizmi konsepsiyasi raqamli platformalarda inson tajribasi va

xulq-atvorining iqtisodiy qiymatga aylanishi shaxs avtonomiyasi masalasini yanada keskinlashtirayotganini ko'rsatadi (Zuboff, 2019:8). Habermasning kommunikativ ratsionallik konsepsiyasi esa raqamli muloqotning miqdoriy faolligi bilan uning axloqiy va epistemik sifatini bir-biridan farqlash zarurligini ko'rsatadi (Habermas, 1984:86).

Mazkur muammoning yechimi axborot makonini cheklashda emas, balki unda mustaqil fikrlaydigan, axloqiy tanlov qila oladigan, epistemik jihatdan mas'uliyatli va raqamli fuqarolik kompetensiyalariga ega shaxsni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda XXI asr ma'naviy tarbiyasining asosiy paradigmasini "axborotdan himoyalanih" emas, balki "axborot sharoitida insoniylikni saqlash" tamoyili bilan ifodalash mumkin. Natijada zamonaviy ma'naviy tarbiyaning oliy maqsadi raqamli muhitdan voz kechgan insonni emas, balki raqamli muhitda ham o'z qadr-qimmatini, erkinligi, mas'uliyati, milliy o'zligi va umuminsoniy axloqiy mezonlarini anglab yashay oladigan barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Castells, M. (2001). The Internet galaxy: Reflections on the Internet, business, and society. Oxford University Press.
2. Castells, M. (2010). The rise of the network society (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
3. Habermas, J. (1984). The theory of communicative action: Vol. 1. Reason and the rationalization of society (T. McCarthy, Trans.). Beacon Press.
4. Habermas, J. (1989). The structural transformation of the public sphere (T. Burger, Trans.). MIT Press.
5. McLuhan, M. (1964). Understanding media: The extensions of man. McGraw-Hill.
6. Postman, N. (1992). Technopoly: The surrender of culture to technology. Alfred A. Knopf.

7. Stoilova, M., Livingstone, S., & Khazbak, R. (2021). Investigating risks and opportunities for children in a digital world. UNICEF Office of Research – Innocenti.
8. Shermuxamedov, K. (2017). Osujdeniye religioznogo fanatizma v islame. Rossiya i musulmanskiy mir, (2 (296)), 146-152.
9. Shermuxamedov, K. A. (2013). Osobennosti religiozno-ekstremistskix techeniy. In Sborniki konferensiy NIS Sosiosfera (No. 39, pp. 29-32). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
10. UNESCO. (2022). Media and information literate citizens: Think critically, click wisely. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
11. Zuboff, S. (2019). The age of surveillance capitalism: The fight for a human future at the new frontier of power. PublicAffairs.